

O'ZBEK TILIDA PARONIMLARNING QO'LLANILISHI

Yusupova Soxiba Islombek qizi
Ma'mun Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida paronim tushunchasining lingvistik mohiyati, ularning ifoda (shakliy) va mazmun (semantik) jihatlarini ilmiy asosda yoritiladi. Paronimlarning fonetik va morfologik o'xshashligi hamda ma'no farqlari tahlil qilinib, ularning nutq jarayonida qo'llanilish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida paronimlarning paydo bo'lish omillari, ularning leksik tizimdagi o'rni va noto'g'ri qo'llanilish natijasida yuzaga keladigan semantik-uslubiy xatolar misollar orqali asoslanadi. Maqola natijalari o'zbek tilshunosligi, xususan, leksikologiya va nutq madaniyati sohalariga uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: paronimlar, paronimik birliklar, paronimik juftlik, bir asosli paronimlar, turli xil asosli paronimlar, sintaktik paronimlar.

Abstract. This article explores the concept of paronyms in the Uzbek language, focusing on their expressive (formal) and semantic aspects. The study analyzes the phonetic and morphological similarities of paronyms, as well as their differences in meaning, highlighting how these factors influence their usage in speech. The causes of paronym formation, their role within the lexical system, and the semantic-stylistic errors that arise from their incorrect use are illustrated with examples. The findings contribute to a deeper understanding of paronymy and have theoretical and practical significance for Uzbek lexicology and speech culture.

Keywords: paronyms, paronymic units, paronymic pair, paronyms with one basis, paronyms with different bases, syntactic paronyms.

O'zbek tilining paronimik leksikasi ifoda va mazmun jihatidan o'ta murakkab lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarga ega. Ularni turli xil tamoyillar asosida yanada kichik guruhlariga tasniflash mumkin¹. O'zbek tilida paronimiya hodisasining ifoda va mazmun nuqtai nazaridan sinxron qiyosiy tahlili paronimlarning morfologik, morfemik, leksik tarkibi, til yasallish tizimiga munosabati jihatidan murakkab lisoniy va nolisoniy leksik birliklar majmuidan iboratligi ma'lum bo'ldi. Aniqlangan paronimik leksik birliklarni quyidagi paronimik tiplarga tasniflash mumkin. 1) turli xil asosli paronimlar (*abzal – afzal, askiya – aksiya, yonilg'i – yoqilg'i, ko'rgilik – ko'rgulik, nufus – nufuz* kabi); 2) bir xil asosli paronimlar (*bo'shlik – bo'shliq, otalik –*

¹ Bu haqda qarang: paronimlarning ifoda jihati haqida ishimizning 2-bobida, mazmun jihati haqida 3-bobida fikr yuritilgan.

otaliq); 3) yasovchidosh paronimlar (*qiyqim – quyqum, qiyma – quyma, surma – sirma* kabi).

Rus tilida paronimlarni, asosan, ikki tip (turli xil asosli va bir asosli paronimlar)ga ajratib tahlil etish an'anasi mavjud². Lingvistik poetika tadqiqotchisi V.P.Grigorev asoslari turlicha bo'lgan, tarkibida kamida ikkita undosh fonemasi o'xshash bo'lgan leksik birliklarnigina paronimlar deb hisoblaydi³.

PJlar bir kichik matnda (xalq maqollari, topishmoq, askiya, tez aytish, qo'shiq, lapar va boshqa tur og'zaki ijod namunalarida), hatto oddiy gaplarda qo'llanib, matnning asosini, markazini, tayanch tushunchasini, bosh g'oyani, etakchi mazmunni ifodalash xususiyatiga ega. Bunda tushunchalar qiyoslanadi, zidlanadi, mantiqiy urg'u oladi: Bo'lsa – bola, bo'lmasa – balo. *Xo'rlikdan xorlik yomon.* (Maqol) *O'qiganimdan ko'ra uqmaganlarim* bisyor. (M.Ochil) *U quyib qo'ygandek* Xorunga o'xshardi. ("Jurnaldan")

Paronimlar tilda antonimlar singari juft holda bo'lmaydi: *yaxshi-yomon, katta-kichik* tarzida juft so'z shaklida qo'llash mumkin. Paronimlarga bu holat xos emas. PJ tarkibidagi LBlar asosan bir turkumga, ba'zan turli (asosan, ikki) turkumga mansub.

O'zbek tili taraqqiyotida tilning kommunikativ-aloqa vazifasini bajarishida frazeologik⁴ va sintaktik (*qalin kitobning muqovasiga yozmoq – kitobning qalin muqovasiga yozmoq*) paronimiya⁵dan ko'ra leksik paronimiya muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbek tili PLsi, asosan, leksemalarning turli xil ma'noviy o'zgarishlari, yasallish tizimi va jarayonining ichki taraqqiyot xususiyatlari, o'zga tillardan LBlar o'zlashtirishning ijobiy va amaliy ta'sirida shakllangan va taraqqiy etgan.

Paronimiya va paronim tushunchasining maxsus, umum tomonidan e'tirof etilgan yagona ta'rifi mavjud emas. "Rus tilidagi xorijiy so'zlar lug'ati"da paronimika (talaffuzi o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi turlicha bo'lgan so'zlarning yuzaga kelishi va shu turdagi so'zlarni bilish haqidagi ta'limot) termini tavsiya qilindi⁶. O'zbek tilshunosligida paronimika termini mavjud emas. Paronimiya hodisasining til va nutqdagi mavqei bu terminni o'zbek tilshunosligida qo'llash lozimligini taqozo qiladi.

² Бельчиков Ю.А., Панюшева М.С. Словарь паронимов русского языка. М.: ООО «Издательство АСТ»: ООО «Издательство Астрель», 2004. – С.6.

³ Жданова Л.А. Паронимия и синонимия // <http://gigarefs.ru/08/dok.php?id=00267#>

⁴ Тилда фразеологик паронимия ҳам мавжуд. Лексика сатҳида ибораларнинг шаклий яқинлиги туфайли фразеологик паронимия воқеланади: *етти ухлаб туш(и)га кирмаслик – етти ухлаб, туш(и)да кўрмаслик, юраг(и) тарс ёрилиш – юраг(и) қоқ ёрилиш.* (Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.9.).

⁵ Синтактик паронимия ҳодисаси ҳам тилда мавжуд. Қаранг: Панфилов Е.Д. О синтаксической паронимии // Вопросы языкознания. – М., 1961, – №6. – С.92.

⁶ Паронимия // http://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_fwords/26174/ПАРОНИМИЯ

Leksik birliklar talaffuzining o'xshashligi, yaqinligi PLning bosh xususiyati deyishadi. Ammo o'xshashlik, yaqinlik darajasi, sharti aniq belgilab chiqilmagan. Mazmun jihati haqida ham turli xil mulohazalar mavjud. Bir xil asosli paronimlarda ma'noviy umumiylik, yaqinlik bo'ladi deyilishining ham chegarasi belgilanmagan. Paronimlikni, PMni asos belgilaydimi, yasovchi belgilaydimi, bu mantiqning ham asosi, me'yori, amal qilish doirasi o'zbek tilshunosligida izchil aniqlangan emas. Bir bo'g'indan tarkib topgan turli asosli paronimlarning tabiati ko'p bo'g'inli va turli asosli paronimlardan farqli xususiyatlari ancha ko'p va murakkab. Paronimlar haqida fikr yuritilganda ularning bir xususiyati qayd qilinadiki, bu xususiyat va belgi paronimlarning lingvistik, metodik va nolingvistik jihatini yanada murakkablashtiradi. Bu xususiyat paronimlarni nutqda qo'llashda xatoga yo'l qo'yish, yanglishish haqidagi turli xil qarashlardir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tildagi barcha paronimlar nutqda xato qo'llashga imkon beravermaydi. Yanglish qo'llash natijasida nutqda mantiqiy xato va kulgili, hajviy, kinoya, qochirim kabi badiiy san'at namunalari yaratiladi. Bu xususiyat barcha paronimlarga xos deb bo'lmaydi.

Paronimiya til hodisasi bo'lsa ham, u nutqda o'zini namoyon qiladi, voqelantiradi, nutq oqimida leksemalar qurshovida leksemaning bir-biriga daxldorligi, ya'ni paronimlik munosabati ma'lum bo'ladi, voqelanadi. Nutq tarkibida talaffuzi yaqin leksemalar bilan almashtirish yoki adashtirish imkoni tug'iladi.

Rus tilshunosligida paronimlar haqidagi ilk ma'lumot 1871 yilda I.YA. Burdon va A.D. Mixelsonlarning "30.000 chet el so'zlarining izohli lug'ati"da berilgan⁷. Shu davrdan beri paronimlar o'rganilib va turlicha izohlanib kelinadi.

Ma'nolari bir-biriga o'xshash so'zlar⁸, talaffuzi o'xshash, yaqin bo'lsa-da, aynan bir xil bo'lmagan, ma'nolari har xil so'zlar⁹, talaffuzi yaqin bo'lsa ham, ma'nolari boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar¹⁰, aytilishi va yozilishi yaqin, ammo ma'nolari har xil so'zlar¹¹ni paronimlar deb ta'riflashgan.

Rus tilshunosligida rus tili paronimlariga to'liq, atroflicha ta'rif O.V.Vishnyakova tomonidan berilgan. Uning ta'rificha, paronimlar – o'xshash talaffuz qilinsa-da, ma'nosida o'xshashlik bo'lmagan bir xil asosli, urg'usi bir bo'g'inga tushadigan, bir mantiqiy qatorga – bir turkumga mansub (fe'l turkumga mansub, bir vidga tegishli), bir tushunchani anglatadigan, farqi esa qo'shimcha leksik ma'no nozikliklari bilan ifodalanadigan va fikriy aniqlik kiritish uchun xizmat

⁷ Бу ҳақда қаранг: Вишнякова О.В. Паронимы в русском языке. (Учебное пособие для пединст. по спец. "Русский язык и литература"). – М.: Высшая школа, 1974. – С.7.

⁸ Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1947. – С.33.

⁹ Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. 2-е изд. – М., 1955. – С.72.

¹⁰ Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка. – М., 1974. – С.68.

¹¹ Введенская Л.А., Дыбина Т.В., Шеболева И.И. Современный русский литературный язык. Лексика, фонетика. – Ростов, 1963. – С. 131.

qiladigan soʻzlardir. Bu taʼrifda paronimlarning fonetik, grammatik va maʼnoviy xususiyatlari aks etgan¹².

Ushbu taʼrif rus tilidagi asosdosh paronimlarga nisbatan bildirilgan mulohazadir. Ammo rus tilida asosi har xil boʻlgan paronimlar ham mavjud. Asosi har xil boʻlgan paronimlarga bu taʼrif qisman toʻgʻri keladi. O.V.Vishnyakovaning fikricha, paronim boʻlishi va soʻzlarning PMda boʻlishi uchun zarur boʻlgan omillardan biri va asosiysi asosdosh boʻlishdir, ikki soʻzning bir soʻzdan yasalişidir.¹³

Leksik-semantik jihatdan yaqin va bir semantik maydonga mansub boʻlgan bir xil asosli soʻzlar – leksik paronimlardir. Paronimiya – omonimiya, sinonimiya, antonimiya, xalq etimologiyasiga mansub soʻzlar, variantdosh soʻzlar singari umumiy tushuncha – mantiqiy munosabatdosh boʻlgan soʻzlardan iborat mustaqil til hodisasi leksik paronimlardir¹⁴.

Aytilishi yaqin, maʼnolari har xil yoki maʼnolari qisman mos keladigan bir xil asosli soʻzlar paronimlar sanaladi: *bankovskiy – bankovyy, geroicheskiy – geroyskiy*¹⁵.

Nutqda ikki soʻz qandaydir darajada oʻxshash talaffuz qilinadigan, ammo har xil maʼnoga ega boʻlgan, bir-birining oʻrnida yanglish tarzda qoʻllanadigan nutqiy hodisani paronimiya termini bilan atash qabul qilingan: *adresat* oʻrnida *adresant*, *emigrant* oʻrnida *immigrant* kabi qoʻllanib, juftlik hosil qiladigan soʻzlar paronimiya deb ataladi¹⁶.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, paronimlar oʻzbek tilining leksik tizimida muhim fenomen boʻlib, shakliy oʻxshashligi va maʼno farqlari bilan ajralib turadi. Paronimlarning fonetik va morfologik xususiyatlari ularning nutqda toʻgʻri va samarali qoʻllanilishida muhim rol oʻynaydi, notoʻgʻri ishlatilishi esa semantik va uslubiy xatolarga olib keladi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, paronimlarni tizimli oʻrganish til madaniyatini rivojlantirish va lugʻaviy kompetentsiyani oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, paronimlarga eʼtibor berish til oʻqitish va amaliy tilshunoslikda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бельчиков Ю.А., Панюшева М.С. Словарь паронимов русского языка. М.: ООО «Издательство АСТ»: ООО «Издательство Астрель», 2004. – С.6.
2. Жданова Л.А. Паронимия и синонимия // <http://gigarefs.ru/08/dok.php?id=00267#>

¹² http://literary.ru/literary.ru/show_archives.php?subaction=showfull&id=1207132603&archive=1207225892&start_from=&ucat=&

¹³ Вишнякова О.В. Паронимы в русском языке. (Учебное пособие для пединст. по спец. “Русский язык и литература”).—М.: Высшая школа, 1974. —С.9.

¹⁴ Вишнякова О.В. Лексические паронимы и слова с общей понятийно-логической соотнесенностью// Русский язык в школе. —М.: Просвещение, 1974. — №3. —С.60.

¹⁵ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. —М., 1985. 3-е изд. —С 68.

¹⁶ Колесников Н.П. Словарь паронимов русского языка. —Тбилиси: изд-во Тбилис. ун-та, 1971. — С. 7.

3. Вишнякова О.В. Паронимы в русском языке. (Учебное пособие для пединст. по спец. “Русский язык и литература”).—М.: Высшая школа, 1974. —С.9.
4. Вишнякова О.В. Лексические паронимы и слова с общей понятийно-логической соотнесенностью// Русский язык в школе. —М.: Просвещение, 1974. — №3. —С.60.
5. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. —М., 1985. 3-е изд. —С 68.
6. Колесников Н.П. Словарь паронимов русского языка. —Тбилиси: изд-во Тбилис. ун-та, 1971. — С. 7.